


“TASDIQLAYMAN”
Jamoatchilik kengashi raisi


A. Ishanxodjaye

2025-yil 31-iyul

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig'ilishi
BAYONI

2025-yil 29-iyul

4-son

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: A. Ishanxodjaye, Kengash raisi, O'zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi

Ishtirok etganlar: Jamoatchilik kengashi a'zolari (ro'yxat bo'yicha)

Taklif etilganlar: Raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o'rinbosari O.Pekos, Vazirlik markaziy apparati departament, boshqarma va bo'limlari vakillari.

Kengash raisi yig'ilish kun tartibini muhokamaga qo'ydi va Kengash a'zolari tomonidan kun tartibi bir ovozdan qabul qilindi.

Kengashning 24 nafar a'zosidan 16 nafari (kvorum) ishtirok etayotganligini inobatga olib, mazkur yig'ilish vakolatli ega deb hisoblanadi.

KUN TARTIBI:

I. Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan 2025-yilning I yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar va istiqbolli rejalar to'g'risida

II. “Madad” muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkilotining 2025-yil 23-iyundagi 01/218-25-son murojaati haqida

(A. Ishanxodjaye, O.Pekos, R.Asqarov, K.Irisbekova, A.Fayzullaye, H.Ermator, S.Murodov, R. Mamatqulov, N.Barnaye... A. Ishanxodjaye)

I. Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan 2025-yilning I yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar va istiqbolli rejalar to'g'risida

Birinchi masala yuzasidan Raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o'rinbosari O.Pekso so'zga chiqib, Vazirlik faoliyatining 2025-yilning birinchi yarim yil yakunlari, iqtisodiy ko'rsatkichlar, raqamli hukumat, raqamli industriya va IT-startaplar, sun'iy intellekt, telekommunikatsiya infratuzilmasi, pochta aloqasi, raqamli ta'lim

yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar taqdim qildi, 2025-yilning keyingi davri uchun ustuvor vazifalarni ham taqdimot o'tkazdi. Jumladan:

IQTISODIY KO'RSATKICHLAR YO'NALISHIDA:

soha 2023-2024 yillarda va joriy yilning yanvar-aprel oylarida boshqa sohalarga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atiga ega bo'ldi;

sohada yaratilayotgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 3,3 barobar tez o'smoqda;

xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar 2017 yilga nisbatan 8,4 barobar oshib, 1 152 tani (jami korxonalarning 11,2 foizi) tashkil etib, boshqa sohalarga nisbatan yuqori ko'rsatkichga erishildi;

sohada xodimlar soni 92 ming nafarni, shundan IT-park rezidentlarining yuqori daromadli ish o'rinalari soni 38,7 ming nafarni tashkil etib, o'zini-o'zi band qilganlar soni deyarli 145 ming nafardan oshdi;

IT-parkning eksporter rezidentlari ham oxirgi ikki yilda 2 barobarga oshib, 750 taga yetkazildi. IT va masofaviy xizmatlar eksporti geografiyasi ham kengaytirilib, 90 dan ortiq davlatlarga xizmatlar ko'rsatilmoqda.

RAQAMLI HUKUMAT YO'NALISHIDA:

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida 54 ta yangi elektron xizmatlar joriy etilib, jami xizmatlar soni 761 taga yetdi. Uning mobil ilovasidagi xizmatlar soni esa 540 taga yetkazildi;

Yagona portal orqali taqdim etilgan xizmatlar soni 16,5 mlndan oshib, uning foydalanuvchilari soni 12 mln nafardan (o'sish 1,4 barobar) va mobil ilova foydalanuvchilari soni esa 6 mln nafardan (o'sish 1,7 barobar) oshdi;

Idoralararo integratsiyalashuv platformasida 390 dan ortiq veb-servislari, 216 tadan ortiq axborot tizimlari ulanib, kunlik so'rovlar soni 12,7 mln. tadan oshib, 120 turdagi hujjatlarni so'rash bekor qilishga erishildi.

RAQAMLI INDUSTRIYA VA IT-STARTAPLAR YO'NALISHIDA:

IT-Park rezidentlari soni o'tgan yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib, 2 846 taga, shundan eksportyorlar soni 750 taga yetkazildi (o'sish 1,5 barobar);

yanvar-may oylarida IT-Park rezidentlari tomonidan 13,1 trln so'mlik (o'sish 1,9 barobar) xizmat ko'rsatilgan, shundan 280,8 million dollarlik (o'sish 1,6 barobar) xizmatlar eksport qilingan;

ularning xodimlari soni 1,3 barobarga o'sib 42,7 ming nafarni tashkil etdi;

IT eksportni oshirish maqsadida Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreyada IT-Parkning vakolatxonalari faoliyati yo'lga qo'yildi;

"Raqamli startaplar dasturi" doirasida 4 ta akseleratsiya dasturi tashkil etilib, ularda 160 tadan ortiq startap loyihalar qo'llab-quvvatlandi;

O'zbekiston "Global Startup Ecosystem Index" reytingida 12 pog'ona ko'tarilib, 98-o'rinni egalladi va TOP-100 taligidan joy oldi.

SUN'IY INTELLEKT YO'NALISHIDA:

"NVIDIA" (AQSh), "Run:ai" (AQSh), Yandex va "Ustudy" kompaniyalari bilan hamkorlikda vazirlik va idoralarning raqamlashtirishga mas'ul bo'lgan 1 050 nafar xodimi sun'iy intellekt texnologiyalari bo'yicha o'qitildi;

Toshkent metropolitenida “MyID Palm” kaft orqali to‘lov tizimi joriy etildi (49 ta bekatda), 20 mingdan ortiq foydalanuvchi tomonidan 130 ming marta to‘lovlar amalga oshirildi;

soliq tizimida “Davron”, huquqiy sohada “Odil” va davlat xizmatlari portalida “Muxlisa” virtual yordamchilari ishga tushirildi;

banklar, to‘lov tizimlari va marketpleyslarda mijozlarni identifikatsiya qilishda raqamli firibgarlarni qisqartirish uchun “My ID” yuzni identifikatsiya qilish tizimi keng qo‘llanilmoqda;

TELEKOMMUNIKATSIYA INFRATUZILMASI YO‘NALISHIDA:

optik-tolali aloqa liniyalarini uzunligi 313 ming kmdan, tayanch stansiyalar soni 87 mingdan oshirildi;

“Speedtest Global index” reytingida so‘nggi 5 yilda internet tezligi 7 barobarga ortib 102 o‘rindan 76-o‘ringa, mobil internet tezligi esa 4,5 barobarga ortib 133 o‘rindan 68-o‘ringa ko‘tarilishiga erishildi.

Xalqaro elektr aloqa ittifoqining 2025-yil uchun e‘lon qilgan “ICT Regulatory Tracker” hisobotida O‘zbekiston 72,5 ball ko‘rsatkichi bilan “G2” darajadan “G3” darajasiga ko‘tarilib, Markaziy Osiyoda ushbu darajadagi yagona davlatga aylandi.

RAQAMLI TA‘LIM YO‘NALISHIDA:

xususiy IT-o‘quv markazlari soni 609 taga yetdi (2024 yilda 558 ta) hamda ularda joriy yilda 51 mingta yoshlar zamonaviy kurslarga o‘qitildi;

“Bir million dasturchi” loyihasiga qo‘shimcha 550 ming nafar yoshlar jalb etilib, ulardan 325 ming nafari zamonaviy kasblarga o‘qib, tegishli sertifikat olishga erishdi (2024 yilga nisbatan 125 foiz o‘shish, 260 ming nafar).

Xorazm viloyatida “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasi doirasida 4,2 ming nafar yoshlar xorijiy til va IT bo‘yicha o‘qitilmoqda;

Sirdaryo va Qo‘shrabod tumanlarida “IT-shaharcha”lar o‘z faoliyatini boshlab, ularda 400 ga yaqin yoshlarga bepul ta‘lim olishmoqda;

O‘zbekistonda ilk marotaba o‘tkazilgan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi informatika olimpiadasida 40 dan ziyod davlatlarning 900 ga yaqin o‘quvchilari o‘rtasida mamlakatimizning 3 nafar yosh dasturchilar Bronza medalini qo‘lga kiritdi.

II. “Madad” muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkilotining 2025-yil 23-iyundagi 01/218-25-son murojaati haqida

Mazkur masala yuzasidan Jamoatchilik kengashi raisi A.Ishanxodjaev so‘zga chiqib, quyidagilarni ma’lum qildi:

“Madad” muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmonidan kelib chiqib, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashiga murojaat qilgan.

Murojaatda O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlar hamda aholining sohaga oid huquqiy

savodxonligini oshirishga qaratilgan davlat ijtimoiy buyurtmasi loyihasi ishlab chiqilganligi ma'lum qilingan hamda shu loyihani ko'rib chiqish so'ralgan.

Yuqorida keltirilgan Farmonning 7-bandida fuqarolik jamiyati institutlariga tegishli soha va tarmoqlarda mavjud muammolarning ta'sirchan yechimini nazarda tutuvchi tashabbusli loyihalarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini olish to'g'risida manfaatdor davlat organiga taklif kiritish huquqi berilgan.

Bunda, tashabbusli loyiha belgilangan tartibga muvofiq davlat organi huzuridagi jamoatchilik kengashi tomonidan ijobiy baholangan taqdirda, uning tashabbuskoriga davlat organining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha miqdorda to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish yo'li bilan ijtimoiy buyurtma berilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Kengashning 2025-yil 15-may kuni so'rovnoma yo'li bilan o'tkazilgan yig'ilishida "Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo'yicha tadqiqot olib borish" ijtimoiy ahamiyatga molik loyihani amalga oshirish masalasi ko'rib chiqildi.

Vazirlik topshirig'iga asosan, mazkur loyihani Vazirlik huzuridagi "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" davlat muassasasi mablag'lari hisobidan amalga oshirish belgilangan.

Markaz tomonidan loyihaning texnik topshirig'i ishlab chiqilib, Vazirlik bilan kelishilganligi, loyihaning taxminiy qiymatini aniqlash uchun tijorat takliflar yig'ildi hamda etender.uzex.uz portalida tanlov e'lon qilindi. Tanlovda "O'zbekiston axborot texnologiyalari korxona va tashkilotlar assotsiatsiyasi" nodavlat notijorat tashkiloti, "Huquqiy muammolarni o'rganish markazi" nodavlat notijorat tashkilotidan taklif kelib tushdi:

Tanlovda ishtirok etgan tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan tanlov hujjatlari Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan baholandi va buning natijasida "O'zbekiston axborot texnologiyalari korxona va tashkilotlar assotsiatsiyasi" nodavlat notijorat tashkiloti ikkinchi ishtirokchiga nisbatan ko'p ball to'pladi hamda mazkur tashkilot bilan ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish bo'yicha tegishli shartnoma imzolanib, bugungi kunda ishlar tashkil qilinmoqda.

Shuningdek, ushbu murojaat bo'yicha Vazirlikning Yuridik ta'minlash bo'limi boshlig'i O.Djumabayev batafsil ma'lumot taqdim qilib, taqdim qilingan loyiha, ya'ni aholining raqamli texnologiyalar sohasida oid huquqiy bilim va ongini oshirish dolzarb masala ekanligini ta'kidlab, bu borada Vazirlik tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berdi. Jumladan:

Vazirlikning 2024-yildagi 191-son buyrug'i qabul qilingan bo'lib, Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar tasdiqlanib, bugungi kunga qadar Vazirlik va uning tizimidagi barcha tashkilotlar tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, raqamli davlat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha aholi ko'nikmalarini hamda Yagona portal foydalanuvchilari sonini oshirish maqsadida o'tkazilgan 498 ta o'quv seminari va treninglarda jami 61 mingdan ortiq aholi, yoshlar va tadbirkorlik subyektlari o'qitildi. "my.gov.uz – hayotiy vaziyatlar uchun!" loyihasi doirasida hududlardagi mahalla yettiligi va faollarining 8 ming nafari, 30 mingdan ortiq aholi, o'quv yurtlari – 14 ming nafardan ortiq hamda tibbiyot xodimlarining 9 ming nafari o'qitildi.

Shuningdek, joriy yilda Jamoatchilik kengashi tomonidan bitta ijtimoiy buyurtma ma'qullanganligi va ushbu loyiha yuzasidan tegishli shartnomalar imzolanib, ishlar yo'lga qo'yilganligi sababli "Madad" muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan kiritilgan loyihani kelgusi yilda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqligi to'g'risida takdif kiritdi.

O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi bo'lim boshlig'i R.Mamatqulov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmonining 7-bandida fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan tegishli soha va tarmoqlarda mavjud muammolarni samarali hal etishga qaratilgan tashabbusli loyihalar uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini taqdim etish yuzasidan manfaatdor davlat organlariga taklif kiritish huquqi belgilanganligini, shunga muvofiq, mazkur loyihalar jamoatchilik kengashi tomonidan ijobiy xulosa berilgan taqdirda, davlat organlari tomonidan budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha bo'lgan mablag' miqdorida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida ijtimoiy buyurtma shaklida moliyalashtirilishi mumkinligi nazarda tutilganligini ta'kidladi.

Shu bilan birga, mazkur Farmonda har yili kamida bir marta sohaviy va idoraviy fuqarolik jamiyati instituti vakillari bilan vazirlik va idoralar tomonidan ochiq muloqotlar o'tkazilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining navbatdagi yig'ilishlarida quyidagi ma'lumotlarni ham taqdim etib borish maqsadga muvofiqligini qayd etdi:

hisobot davrida vazirlikning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ijtimoiy buyurtma berish yuzasidan o'tkazilgan tanlovlar;

fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini olish bo'yicha kiritilgan takliflar va ularning ko'rib chiqilishi hamda ijrosi holati;

hisobot davrida vazirlik tomonidan fuqarolik jamiyati instituti vakillari bilan o'tkazilgan sohaviy va idoraviy ochiq muloqotlar.

Yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan Kengash a'zolari Senator, "Ishonch" va "Ishonch-Доверие" gazetalari bosh muharriri H.Ermatov, "Yuksalish" umummilliy harakati raisining Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'yicha maslahatchisi U.Rajabov, "Xabar" gazetasi tahririyati" bosh muharriri A.Abdurahmonov, O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi bo'lim boshlig'i R.Mamatqulov va boshqalar o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Bildirilgan fikr-mulohazalar hamda takliflar asosida **Kengash qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

Raqamli texnologiyalar vazirining birinchi o‘rinbosari O.Pekosning Vazirlik faoliyatining 2025-yil birinchi yarim yil yakunlari, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, raqamli hukumat, raqamli industriya va IT-startaplar, sun‘iy intellekt, telekommunikatsiya infratuzilmasi, pochta aloqasi, raqamli ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha taqdim qilgan axboroti hamda 2025-yilning keyingi davri uchun ustuvor vazifalar taqdimoti;

Vazirlikning Yuridik ta‘minlash bo‘limi boshlig‘i O.Djumabayevning Vazirlik tomonidan aholining sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyati yuzasidan xabardorligini oshirish to‘g‘risidagi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Joriy yilda Vazirlik tomonidan “Elektron ishtirok jarayonlarida fuqarolarning, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ishtirokini yanada rivojlantirish va raqamli hukumat tizimlariga foydalanuvchilar sodiqligini oshirish bo‘yicha tadqiqot olib borish” ijtimoiy ahamiyatga molik loyiha moliyalashtirilganligini inobatga olib, “Madad” muassasa shaklidagi nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan kiritilgan loyihani kelgusi yilda ko‘rib chiqish yuzasidan kiritilgan taklif ma‘qullansin.

3. O‘zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi bo‘lim boshlig‘i R.Mamatqulovning:

hisobot davrida Vazirlikning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ijtimoiy buyurtma berish yuzasidan o‘tkazilgan tanlovlar;

fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan davlat ijtimoiy buyurtmasini olish bo‘yicha kiritilgan takliflar va ularning ko‘rib chiqilishi hamda ijrosi holati;

hisobot davrida vazirlik tomonidan fuqarolik jamiyati instituti vakillari bilan o‘tkazilgan sohaviy va idoraviy ochiq muloqotlar to‘g‘risida Kengashning keyingi yig‘ilishida ma‘lumotlar taqdim qilish bo‘yicha takliflari qo‘llab-quvvatlansin.

4. Raqamli texnologiyalar vazirligiga:

Vazirlik tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, ayniqsa, sun‘iy intellekt yo‘nalishiga oid ma‘lumotlarni keng targ‘ib qilish, bu borada aholining bilimi va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish;

qarorning 3-bandida keltirilgan yo‘nalishlar bo‘yicha Kengashning keyingi yig‘ilishida ma‘lumotlar taqdim qilish tavsiya etilsin.

5. Kengash ishchi organi (N.Abdullayev):

Vazirlik axborot xizmati (Sh.Axmatov) bilan birgalikda Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotni Vazirlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini tashkil qilish;

mazkur bayonni Jamoatchilik kengashi a‘zolariga yetkazish choralari ko‘rsin.

Kengash kotibi

N. Abdullayev